

Bosh muharrir:

**SHARIPOV Shavkat Safarovich**

Tahrir hay'ati:

**ABDULLAYEVA Barno**

**ADILOVA Saodat**

**ASHIRBOYEV Samixon** (bosh muharrirning birinchi o'rinbosari)

**BESHIMOV Ro'zinazar**

**ERGASHEV Dilshod**

**ERGASHOV Maxamatrasul**

**FAYZULLAYEV Saidnosir**

**GULYAMOV Komiljon**

**HAKIMOVA Muhabbat**

**ISYANOV Ravil**

**JALOLOV Jamol**

**KOMILOVA Nodira**

**MAHKAMJONOV Karimjon**

**MAMADAZIMOV Mamadmusa**

**MATENOVA Yuliya**

**MUSLIMOV Narzulla**

**NURMUHAMMEDOVA Laylo**

**PANJIYEV Qurboniyoz**

**QO'YSINOV Odil** (bosh muharrir o'rinbosari)

**QODIROVA Fotima**

**RUZIYEV Erkin**

**SAFAYEV Nuriddin**

**TAXIROV Jozil** (bosh muharrir o'rinbosari)

**TO'RAYEV Samad**

**TOLIPOVA Jamila**

**TUXLIYEV Bokijon**

**VALIYEVA Sirojjiya**

**XODJAYEV Begzod**

**YUZLIKAYEV Farid**

**ZUFAROV Sherzod**

**SHODMONOVA Shoirra**



**Muassis:** Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.

“Pedagogika” jurnali “Pedagogik ta’lim” jurnalining vorisidir.

Jurnalda pedagogika, psixologiya, o’qitishning metod va texnologiya-lariga oid ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik maqolalar o’zbek va rus tillarida chop etiladi.


Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2014-yil 26-maydagi 02-004-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro’yxatidan o’tkazilganligi to’g’risida guvohnoma” olingan va unga O’zbekiston Respublikasi Milliy kitob palatasining 2008-yil 30-iyundagi 511/S shartnomasi asosida Davriy nashrlarning Xalqaro standartlar (ISSN) – 2010-5320 raqami taqdim etilgan.

O’zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2013-yil 30-dekabrda 201/3-sonli qarori bilan ro’yxatga olingan.

Jurnal oliy ta’lim muassasalarining professor-o’qituvchilari, ilmiy xodimlar, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va umumiy o’rta ta’lim maktabi o’qituvchilari, malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimi tinglovchilari, magistrantlar, talabalarga mo’ljallangan.

ную оценку деятельности человека и полагает принятие конструктивных решений, соответствующих сложившимся обстоятельствам.

Наш вывод сводится к следующему. Формирование толерантной личности детерминировано готовностью к культурному обмену и обогащению, ценностной установкой на диалог, который ориентирован на достижение большего взаимопонимания и гармонизацию отношений между Западом и Востоком, разными культурными парадигмами. Суть толерантности заключается в уменьшение числа угроз, которые могут навредить человеку, обществу и государству.



**Asilova Gulshan (O'zR DBQ OHBI)**

**MA'LUMOT-AXBOROT HUIJATLARINI RASMIYLAŠHTIRISH  
O'QUV MODULI TA'LIMIGA DOIR**

**Abstract.** *The article analyzes the technology of modular teaching in the teaching of the state language. Methods of forming the skills of formal written communication in the process of developing professional competencies of future customs officers are presented.*

**Резюме.** *В статье анализируется технология осуществления модульного обучения в преподавании государственного языка. Представлены методы формирования умений и навыков официального письменного общения в процессе развития профессиональных компетенций у будущих сотрудников таможи.*

**Tayanch tushunchalar:** *modulli ta'lim, o'quv moduli, kasbiy kompetensiyalar, rasmiy idoraviy uslub, ma'lumot-axborot hujjatlari, ta'lim texnologiyasi.*

Axborot, bir tarafdin, jamiyatni rivojlantirishning strategik manbalaridan biriga aylanib borayotgan bo'lsa, boshqa tomondan dolzarbligini tez yo'qotmoqda, eskirmoqda va muntazam yangilanishni talab qilmoqda. Bunday sharoitda ta'limga uzluksiz jarayon sifatida qaralishi, uning har bir bosqichida erishiladigan natijaning hayotga tatbiq qilinishi, amaliyot bilan uzviy bog'liq bo'lishi davr talabi bo'lib qoladi.

Davlat tili ta'limining maqsadi ham yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, hosil qilingan bilim, malaka va ko'nikmalarni hayotda, kasbiy faoliyatda samarali qo'llashga yo'naltirilgan. Til madaniyati, adabiy til masalalariga Prezident I. Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida alohida e'tibor berilgan: "Ayni vaqtda jamiyatimizda til madaniyatini oshirish borasida hali ko'p ish qilishimiz lozimligini ham unutmashimiz zarur. Ayniqsa, ba'zan rasmiy muloqotlarda ham adabiy til qoidalariga rioya qilmaslik, faqat ma'lum bir hudud

doirasida ishlatiladigan sheva elementlarini qo'shib gapirish holatlari uchrab turishi bu masalalarning hali-hanuz dolzarb bo'lib qolayotganini ko'rsatadi. Bu haqda so'z yuritganda, bobomiz Alisher Navoiyning "Tilga e'tiborsiz – elga e'tiborsiz" degan so'zlarida naqadar chuqur hayotiy haqiqat mujassam ekaniga yana bir bor ishonch hosil qilamiz"<sup>1</sup>.

Darhaqiqat, adabiy til sofligini saqlab qolish uchun o'zbek tili ta'limida eng quyi bosqichlardan boshlab harakat qilinishi zarur. Bu borada nafaqat og'zaki, balki yozma nutqda ham yuqori darajadagi savodxonlikka qay darajada erishishimiz o'zbek tilining kelajagini belgilab beradi.

Yangi pedagogik texnologiyalarning ta'lim bosqichlarida qo'llanishi til borasidagi zarur malaka va ko'nikmalarni talab darajasida rivojlantirishga ko'maklashadi. Bo'lg'usi mutaxassislarining davlat tilida kasbiy muloqot yuritish ko'nikmalarini shakllantirishda modulli ta'lim texnologiyasini qo'llash o'zining bir qator afzalliklarini ko'rsatmoqda. Ushbu texnologiyani amalga oshirish uchun o'quv dasturi bir necha tematik blokka bo'linadi. O'quv soatlari miqdori ta'lim maqsadiga muvofiq taqsimlanadi. Mazkur texnologiya individual-darajalangan yondashuv asosida ta'lim berishga asoslanadi.

O'quv moduli deb o'quv materialining bir necha komponentdan iborat avtonom bo'lagiga aytiladi. Bular:

- aniq qo'yilgan ta'lim maqsadi;
- ma'lumotlar banki (o'quv dasturlari ko'rinishida);
- maqsadga qanday erishishni ifodalovchi metodik tavsiya;
- zarur malakalarni shakllantiruvchi amaliy mashg'ulotlar;
- modulning maqsadlariga muvofiq nazorat ishi<sup>2</sup>.

Ushbu komponentlarning bir-biri bilan uzviy bog'liqligi hamda bir-birini to'ldirishi o'quv modulini yaxlit tizim shakliga keltiradi<sup>3</sup>.

Modulli ta'limning samarasi talabalarning mustaqil ravishda faoliyat yuritishlari va o'qituvchining ushbu jarayonni tashkil etish, ta'lim oluvchilarda motivatsiyani uyg'otish, ularga maslahat berish, ularning faoliyatini nazorat qilish mahoratiga bog'liq. Talabalar nafaqat mustaqil ishlash malakasini egallaydi, balki muloqot jarayonida bir-birlariga yordam beradi, o'zlari va guruhdoshlarining ishlarini baholaydi. Talabalar tomonidan o'quv faoliyati maqsadining ongli ravishda tushunilishi o'qituvchining vazifasini axborot berishdan maslahat berish va boshqarish rejimiga o'tkazadi. Ta'limning bunday tashkil qilinishi o'qituvchiga har bir talaba bilan muloqot qilish, mavzuni o'zlashtirish jarayonida oqsayotganlarga yordam berish, ilg'or talabalarga esa maslahat berish

<sup>1</sup>Каримов И. А. Юсак маънавият – энгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б.89.

<sup>2</sup>Вазина К. Я. Саморазвитие человека и модульное обучение. – Н. Новгород, 1991. – С.36.

<sup>3</sup>Рудницкая С. В. Модульное обучение как целостная система: дисс. ...канд.пед.наук. – Санкт-Петербург, 1996. – С. 12.

imkoniyatini yaratadi. Bu modulli o'qitishning alohida ta'lim texnologiyasi sifatida talqin qilinishiga sabab bo'ldi<sup>1</sup>.

Rus guruhlarida ta'lim oladigan talabalarga o'zbek tilini o'qitishda ularning kelajakdagi faoliyatiga taalluqli bo'lgan kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish dolzarb muammolardan biridir. Bunda ish yuritish hujjatlarini rasmiylashtirish malakalari salmoqli o'rinni egallaydi. Ularni rivojlantirish uchun o'quv jarayonida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, tizimli yondashuv, hamkorlikda o'qishni tashkil qilish, muammoli ta'lim texnologiyalari va usullarini qo'llash maqsadga muvofiq.

"O'zbek tili" fanidan oliy ta'lim muassasalarining rus guruhlari uchun yaratilgan namunaviy dasturda fanga o'quv rejasida ajratilgan o'quv soatlariga qo'shimcha ravishda tanlov soatlari hisobidan, jumladan, davlat tilida ish yuritish kursini joriy etish tavsiya qilingan<sup>2</sup>. Shunga ko'ra, Oliy harbiy bojxona institutida "Bojxona ishi" ta'lim yo'nalishi rus guruhlari uchun joriy qilingan ishchi o'quv dasturida "O'zbek tili" fani doirasida ish yuritish hujjatlariga qo'shimcha fanlar hisobidan 36 soat ajratilgan<sup>3</sup>. Ushbu kurs 4 ta o'quv modulidan iborat bo'lib, o'quv soatlari quyidagicha taqsimlangan:

1. Tashkiliy va farmoyish hujjatlarini tuzish (10 soat).
2. Ma'lumot-axborot hujjatlarini rasmiylashtirish (8 soat).
3. Bojxona nazoratiga oid hujjatlarni rasmiylashtirish (10 soat).
4. Xizmat yozishmalarini yuritish (6 soat).

Mazkur o'quv kursi doirasida talabalar rasmiy ish uslubining turli janrlari bilan yaqindan tanishish barobarida, ish hujjatlarining rekvizitlari, hujjatlarni to'ldirish xususiyatlari, ularning sxematik tarzdagi ko'rinishi, xizmat yuzasidan to'ldiriladigan hujjatlar tili, ulardagi nutq modellari va konstruksiyalar, ularning leksik va sintaktik xususiyatlari, standart qolip tushunchasini o'zlashtiradilar.

Misol tariqasida "Ma'lumot-axborot hujjatlarini rasmiylashtirish" moduli mazmuniga batafsil to'xtalamiz. Modulga 8 soat amaliy mashg'ulot va 4 soat mustaqil ish ajratilgan bo'lib, u quyidagi mavzulardan iborat:

- 1) ma'lumotnoma va uning turlarini tuzish;
- 2) bayonnoma tuzish va undan ko'chirma olish;
- 3) yo'lovchi bojxona deklaratsiyasini to'ldirish;
- 4) hisobot va uning turlarini tuzish.

Mavzular bojxona organlari amaliyotida keng qo'llanadigan ma'lumot-axborot hujjatlarini o'z ichiga olgan. Bu nazariya va amaliyotning uyg'unlashuvini ta'minlaydi va talabalarning kelajakda amalga oshiradigan kasbiy faoliyatida

---

<sup>1</sup>**Качура Н. Е.** Модульное обучение как педагогическая технология: дисс. ... канд.пед.наук. – Тула, 2002. – С. 6.

<sup>2</sup>**Rafiyev A., Muhammedova S., Usmonov S., Lafasov U.** O'zbek tili fanidan namunaviy dastur / bakalavr yo'nalishi uchun. – Toshkent: O'zMU. – B. 3.

<sup>3</sup>**Asilova G., Qudriddinova N.** O'zbek tili fanidan ishchi o'quv dasturi / oliy ta'limning "Bojxona ishi" yo'nalishi uchun. – Toshkent: DBQ OHBI, 2015. – B.6.

muhim ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonida zamonaviy interfaol, innovatsion usullar axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida qo'llanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ta'lim jarayonida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar yaratishga imkon beradi:

- katta hajmdagi o'quv axborotiga ega bo'lish;
- o'rganilayotgan materialning obrazli aniq shaklini taqdim etish;
- faol o'qitish metodlarini amalga oshirish;
- nazariy bilimlar va kasbiy faoliyat orasidagi aloqani ta'minlash.

Amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ta'lim jarayonida kompyuter texnikasi, Internet, masofaviy ta'lim dasturlaridan foydalanish imkoniyati yaratilgan bo'lsa, modulli ta'lim talabalarning fanni o'rganishga bo'lgan qiziqishini yanada kuchaytiradi va qo'yilgan maqsadga erishishga yordam beradi.

O'quv modulining elektron shakli quyidagi bo'limlardan iborat:

- o'quv modulining ishchi o'quv dasturidagi o'rni;
- mashg'ulot mavzulari va ularga ajratilgan soatlar miqdori;
- ta'lim texnologiyasi;
- taqdimotlar;
- videolavhalar;
- ish hujjatlarining namunalari;
- hujjatlarni onlayn to'ldirish;
- amaliy mashqlar va topshiriqlar tizimi;
- keyslar;
- testlar;
- assesment;
- mustaqil ish turlari va ularni bajarish muddati;
- glossariy va adabiyotlar ro'yxati.

O'quv modulining har bir mashg'uloti uchun ishlab chiqilgan ta'lim texnologiyasida mashg'ulot maqsadi, rejasi, pedagogik vazifalar, o'quv faoliyatidan kutilayotgan natijalar, ta'lim metodlari, o'quv jarayonini tashkil etish shakllari, ta'lim vositalari aks ettirilgan hamda vaqt taqsimoti bo'yicha tavsiyalar berilgan.

O'rganiladigan har bir hujjat haqida elektron taqdimot tayyorlangan bo'lib, unda ushbu hujjatning mohiyati, vazifasi, kasbiy faoliyatdagi o'rni, uning turlari va ko'rinishlari, hujjatning mazmun jihatdan qismlari, rekvizitlari, hujjatga xos bo'lgan nutq qoliplari, maxsus terminologiya, hujjat namunalari va boshqa ma'lumotlar aks ettirilgan.

Mavzular bo'yicha yaratilgan videolavhalarda o'rganilayotgan hujjatning qanday jarayonda qo'llanishi, bu jarayonda muloqot qay tarzda yuritilishini ko'rish mumkin. Masalan, "Yo'lovchi bojxona deklaratsiyasini to'ldirish" mavzusiga oid bir necha videolavha tayyorlangan bo'lib, ularning birida deklaratsiyani to'ldirish tartibi tushuntiriladi, boshqasida deklaratsiyani rasmiylashtirish jarayonida bojxona xodimi va yo'lovchi o'rtasida yuz beradigan muloqot tasvirlangan. Bunday videolavhalar nafaqat ta'limiy (matnning ravon adabiy tilda o'qilishi va talaffuz etilishi, yozuvlarning grammatik va stilistik jihatdan benuqsonligi va boshqalar), balki tarbiyaviy ahamiyatga ham ega (bojxona xodimi ish joyida o'zini qanday tutishi, uning tashqi ko'rinishi va xatti-harakatlari, kasbiy madaniyati va boshqa jihatlar).

O'quv modulida aks ettirilgan ish hujjatlaridan namunalar bevosita bojxona organlari amaliyotidan olingan bo'lib, ko'rgazmalilik jihatidan katta ahamiyatga ega. Bunda asosiy e'tibor ish faoliyatida qo'llanadigan ushbu hujjatlarning ko'rinishi, sxematik tuzilishi, xususiyatlari, ularda qo'llanadigan nutqiy qoliplar, ularni tuzish, to'ldirish va rasmiylashtirish tartibiga alohida e'tibor qaratiladi. Masalan, "Hisobot" mavzusi bo'yicha talabalarga namoyish qilinadigan hujjatlar bojxona organlarida qo'llanadigan raqamli davriy hisobotlar, berilgan topshiriqni bajarish bo'yicha hisobot hamda xizmat safari yakunlari bo'yicha hisobotlarning namunalaridan iborat. Hujjatlar PDF, Word formatlarida bo'lib, ularning bazasi muntazam ravishda yangilanib turadi.

Hujjatlarni onlayn to'ldirish amaliy mashg'ulotlarda bajariladi. Talabalar o'quv auditoriyasidagi Internetga ulangan kompyuterlarda hujjat blanklarini to'ldiradi. Bunda o'qituvchi har bir talabaning hujjatni to'g'ri to'ldirishini nazorat qiladi, unga tavsiyalar beradi. Masalan, yo'lovchi bojxona deklaratsiyasini o'zbek tilida to'g'ri to'ldiradigan talaba kelgusi faoliyatida yo'lovchiga hujjatni to'ldirish qoidalarini tushuntira oladi va bu bilan ko'pgina anglashilmovchiliklar yoki qonunbuzarlikning oldini oladi.

O'quv modulining amaliy mashqlar va topshiriqlar tizimi turli pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar yordamida talabalarda hujjatlarni tuzish uchun zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Masalan, xizmat ma'lumotnomasining raqamli va matnli turlarini tuzish, shaxsiy va xizmat ma'lumotnomasining rekvizitlaridagi farqlarni aniqlash, bayonnoma matnida qo'llanadigan standart qoliplarni sxematik aks ettirish kabi topshiriqlar shular jumlasidandir. Kichik guruhlarda ishlash, juft-juft bo'lib ishlash, jamoalar musobaqasi tarzida amalga oshiriladigan vazifalar talabalarning faolligini oshiradi. Kasbiy muloqotda qo'llanadigan tushuncha va atamalarning mazmunini o'zbek tilida yod olish esa talabalarning xotirasini kuchaytirish bilan birga,

kelgusida ushbu tushunchalarni yo'lovchilar yoki tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilariga tushuntirib berishga asos yaratadi. Shuningdek, pedagogik muloqot ko'nikmalarini takomillashtirish talabalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlarda aks ettiriladi.

Keyslar o'quv modulida alohida o'rin tutadi. "Case-study"ning asosiy maqsadi – turli vaziyatli masalalarni hal qilish mobaynida ta'lim oluvchilarning konseptual sxema va modellardan amaliy foydalanish malakalarini, shuningdek, muammolarni guruh tahlil qilish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini ishlab chiqarish orqali bilimlarini mustahkamlashdan iboratdir.<sup>1</sup> "Ma'lumot-axborot hujjatlarini rasmiylashtirish" modulida keyslarning har xil darajadagi va ko'rinishdagi turlaridan foydalaniladi. Masalan, rasmda ifodalangan vaziyatga oid quyidagi topshiriqlar beriladi:

1. Rasmda qanday vaziyat aks ettirilgan?
2. Xodimlarning har biri nima bilan shug'ullanmoqda?
3. Ushbu vaziyatda Siz qanday muammoni ko'ryapsiz?
4. Bu kabi holatlarda Sizing xatti-harakatingiz nimalardan iborat bo'ladi?
5. Muammoning oldini olish uchun nima qilgan bo'ladingiz?

Yana bir keysda ish jarayonida to'ldirilgan hujjat aks ettirilgan bo'lib, uning mazmuni bo'yicha savollar berilgan:

1. Hujjat qanday to'ldirilgan? Unda xatolar bormi?
2. Siz ushbu hujjatni qanday to'ldirishni maslahat berasiz?
3. Hujjatni tez va sifatli to'ldirish uchun qanday takliflarni bildirasiz?

Bu turdagi keyslar talabani nafaqat ushbu vaziyatda muammo bor-yo'qligini aniqlashga, balki kasb sohasida yuzaga keladigan holatlarda to'g'ri qaror qabul qilishga ham undaydi.

O'quv modulidagi testlar ta'limiy va nazorat vazifalarini bajaradi. Bunda testlarning turli ko'rinishlaridan (ochiq va yopiq, moslikni topish, chizmalı, rasmlı) foydalaniladi. Ular hujjatlarning qo'llanish sohasi, rekvizitlari, mazmun jihatdan qismlarga bo'linishiga oid bilim va malakalarni aniqlash hamda rivojlantirishga qaratilgan. Moduldagi testlar turkumi har bir kurs yakunida yangilanib turadi.

Modulning assesmenti ko'p variantli bo'lib, "test", "simptom", "muammoli vaziyat", "amaliy ko'nikma" bo'limlaridan iborat. Ushbu texnika baholash usuli sifatida qo'llanadi va modul yakunida bajariladi. Uning maqsadi talabalarning o'tilgan mavzularni qay darajada o'zlashtirganliklarini aniqlash, ularni mustaqil ravishda o'zlarining bilim darajalarini baholay olishga, bilimlarini bir tizimga

---

<sup>1</sup>Абдукодилов А. А., Астанова Ф. А., Абдукодилова Ф. А. "Case-study" услуги: назария, амалиёт ва тажриба. – Тошкент: Tafakkur qanoti, 2012. – Б. 5.

solishga o'rgatishdan iborat<sup>1</sup>. Shu bilan birga, assesment talabani ham nazariy, ham amaliy jihatdan baholash imkonini beradi.

O'quv moduli bo'yicha mustaqil ish turlari va ularni bajarish muddatlari belgilab qo'yilgan. Ularga asosan berilgan hujjatlarning namunalarini tayyorlash kiradi. Talabalar o'rganilgan hujjatlarni turli vaziyatlar bo'yicha qanday ko'rinish va mazmunda tayyorlaganliklarini namoyish qiladilar.

Yuqorida aytilganlardan ko'rinadiki, modulli ta'limning samarasi yuqori bo'lishi uchun ta'lim jarayoni axborot resurslarini qo'llashning zamonaviy texnologiyalari, hujjatlarni rasmiylashtirish bo'yicha masofali dasturlar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Bu esa o'quv-tarbiya jarayonining intensivlikka olib keladi: ta'lim samarasi va sifati oshadi; fanlararo aloqalar ma'lumotlar va fan bo'yicha tayyorgarlikning integratsiyasi hisobiga mustahkamlanadi, ta'limning faol metodlari rivojlanadi, bilim olishga ehtiyoj hamda qiziqish kuchayadi.

  
*Ismatullayev Farhod (TDPU)*

### “OMMAVIY MADANIYAT” VA UNING YOSHLAR MA’NAVIYATIGA TA’SIRI

**Abstract.** *The article analyzes the impact of popular culture on young people, which has an impact on their spiritual education, as well as information on the methods and measures to eradicate this culture in the minds of students is provided.*

**Резюме.** *В данной статье анализируется влияние «массовой культуры» (поп-культуры) на молодежь, на ее духовное воспитание, также приводятся сведения о путях и мерах по искоренению данной культуры из сознания учащихся.*

**Tayanch tushunchalar:** *“Ommaviy madaniyat”, globallashuv, axborot asri, yosh avlod, ma’naviyat, uyg’onish davri madaniyati.*

O'tgan asrning oxirgi yillari va XXI asrning boshlaridagi xalqaro vaziyat globallashuv jarayonlarining muttasil chuqurlashib borganligi bilan ajralib turadi. Xalqaro globallashuv insoniyat, mamlakatlar hayotining borgan sari yangi-yangi sohalarini egallamoqda, natijada hozirgi davrga qadar bo'lgan xalqaro tartibot va qadriyatlar yangi ma'no va mazmun bilan to'lib bormoqda. Bu o'rinda xalqaro

---

<sup>1</sup>Ишмухамедов Р., Юлдашев М. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар. – Тошкент: Nihol, 2013. – Б. 55.



MUNDARIJA

**PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA,  
PEDAGOGIK INNOVATIKA**

**Туленова Карима, Расулев Эркин**  
Научная школа как воспитательная образовательная единица.....2

**Todjibayeva Komila**  
Pedagogika kolleji o'quvchilarining kasbiy sifatlarini shakllantirishda umumkasbiy va xususiy-metodik bilimlar integratsiyasining roli.....8

**Айрапетова Алёна**  
О некоторых аспектах несубстанциональной аддиктивной реализации.....15

**TA'LIM TIZIMI MENEJMENTI**

**Sharipov Shavkat**  
Pedagogika universitetida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish: tajriba va istiqbol.....23

**Rahmatullayev Dilmurod**  
Umumiy o'rta ta'lim tizimida boshqaruvni strategik rejalashtirish.....30

**МАТЕМАТИКА ВА ТАБИЙ-ILMIY  
FANLAR TA'LIMI**

**Джанпеисова Гаухар**  
Возможности использования мультимедиа технологий в диагностике математического

**Islomova Hilola**  
Axborot kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirish sohasida o'qitishning innovatsion metodlari.....47

**Sheraliyev Sa'dulla**  
Kompyuter texnikasi vositasida fizika laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish.....51

**Gulomova Nozima,  
Saydaliyev Saydkarim**  
AutoCAD grafik dasturlari dars samaradorligini oshirish vositasi sifatida.....55

**Tursunmetov Komiljon,  
Maxsudov Valijon**  
Matematik mayatnikning tebranish chastotasini aniqlashning noan'anaviy metodlari.....58

**IJTIMOIIY VA GUMANITAR  
FANLAR TA'LIMI**

**Иззетова Эмине**  
Философия межкультурного взаимодействия: толерантность, диалог, понимание.....64

**Asilova Gulshan**  
Ma'lumot-axborot hujjatlarini rasmiylashtirish o'quv moduli ta'limiga doir.....71

развития  
детей.....36

**Yakubjanova Dilobar**  
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga  
matematika o'qitish.....43

**Кадирова Нулуфар**  
О коммуникативно-кумулятивном  
методе обучения иностранному  
языку.....82

**Tajbenova Saule**  
Ta'lim qoraqolpoq tilida olib  
boriladigan maktablarda o'zbek tili  
bo'yicha shakllantiriladigan bilim,  
ko'nikma va malakalar  
talqini.....86

**Sultanova Aydin**  
Qoraqalpoq guruhlarida o'zbek tili  
grammatik vositalarini qiyosiy  
o'rganish.....91

**Клименко Ирина**  
Развитие коммуникативной  
культуры с использованием  
произведений художников  
узбекистана в системе  
непрерывного  
образования.....96

**Azimova Feruza**  
O'quvchilarning dramatik asarlar  
tahliliga doir kompetensiyalarini  
rivojlantirish.....103

**Ismatullayev Farhod**  
"Ommaviy madaniyat" va uning  
yoshlar ma'naviyatiga  
ta'siri.....77

#### SAN'AT VA JISMONIY MADANIYAT TA'LIMI

**Talipov Nozim**  
Inson qiyofasini moybo'yoqda  
ishlashga o'rgatish  
usullari.....109

**Sultanov Xaytboy**  
Talabalarni kasbiy faoliyatga  
tayyorlashda ko'rgazma va  
tanlovlarning  
o'rni.....113

#### TA'LIM TIZIMI YANGILIKLARI

**Baratov Pattax**  
Geoekologiya asoslaridan yangi  
qo'llanma.....118

**Musurmonova Oynisa**  
Umumiy o'rta ta'lim  
muassasalarining  
strategik menejmenti  
talqini.....119

#### FAN VA TA'LIM FIDOYILARI

**Valiyev A'zamjon, Ashirboyev Azim,  
Meyliyeva Komila**  
Kompyuter grafikasi  
ustasi.....122

**MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL EDUCATION  
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN  
TASHKENT STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY  
NAMED AFTER NIZAMI**

**PEDAGOGICA**

(Scientific-theoretical and methodical journal)

**№ 1**

**РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН  
МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО СПЕЦИАЛЬНОГО  
ОБРАЗОВАНИЯ  
ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ им. НИЗАМИ**

**ПЕДАГОГИКА**

(Научно-теоретический и методический журнал)

**№ 1**

**Mas'ul kotib** – Bahodir Mavlonov  
**Muharrirlar** – Saodat Adilova, Nafisa Razzoqova  
**Sahifalovchilar** – Nargiza Husenova, E'zoza Sobirova

**Nashr ko'rsatkichlari:**

Yakka obunachilar uchun – 1076, Tashkilotlar uchun – 1077  
Jurnal 2000-yildan chiqa boshlagan. Ikki oyda bir marotaba chop etiladi.

2016-yil 27-fevralda bosishga ruxsat etildi. 238-buyurtma.

Adadi – 565 nusxa. 12 bosma taboq. Ofset usulida bosildi.

Bichimi 70x100<sup>1</sup>/<sub>16</sub> “Times New Roman” va “Calibri” garniturasida.

Nizomiy nomidagi TDPU “Tahrir va nashr” bo'limida bosildi.

100100, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani,

Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103-uy. Tel.: (0371) 215-52-64

**Veb sayt:** [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)

**E-mail:** [pedagogika@inbox.uz](mailto:pedagogika@inbox.uz) // [pedagogika.uz@mail.ru](mailto:pedagogika.uz@mail.ru)